

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.30/30.09.2022.I.101.04 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV JAVOXIR JAXONGIROVICH

**OLIY TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTI SOHASIDA RAQOBAT
STRATEGIYASINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstrast of doctor of philosophy (PhD)
on economical scienses**

Abdullayev Javoxir Jaxongirovich

Oliy ta'lim xizmatlari eksporti sohasida raqobat strategiyasining mintaqaviy xususiyatlari..... 3

Абдуллаев Жавохир Жахонгирович

Региональные особенности конкурентных стратегий в экспорте услуг высшего образования..... 27

Abdullaev Javokhir Jakhongirovich

Regional features of a competitive strategy in higher education services export..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ 56
List of published works.....

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.30/30.09.2022.I.101.04 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV JAVOXIR JAXONGIROVICH

**OLIY TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTI SOHASIDA RAQOBAT
STRATEGIYASINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt4204 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azimov Bobir Fattohevich

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Arabov Nurali Uralovich

iqtisod fanlari doktori, professor

Rashidov Mels Karimovich

iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.30/30.09.2022.I.101.04 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil «30» dekabr soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro sh., Q. Murtazoyev ko'chasi 15, (8-365)223-78-84, faks: 223-78-84; e-mail: info@bstu.uz, Buxoro davlat texnika universiteti ma'muriy binosi, 2-qavat, 202-xona).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200100, Buxoro sh., Q.Murtazoyev ko'chasi 15, tel. (8-365) 223-78-84, faks: 223-78-84

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi ____ - raqamli reestr bayonnomasi).



A.B. Nizomov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.N. Xayitov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

B.N. Navruz-Zoda

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiy globallashuv bilan bir qatorda madaniy globallashuvning chuqurlashshib borishi sharoitida oliy ta'lim xizmatlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri har qachongidan ko'ra ortib borib, xizmatlar eksporti mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi va jahon hamjamiyatidagi mavqeini mustahkamlashda yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. "2030 yilga kelib dunyo mamlakatlari tomonidan oliy ta'lim sohasiga yo'naltirilgan xarajatlar 10 trillion AQSh dollariga yetishi prognozlashtirilmoqda. Bu o'z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlardagi aholi sonining ko'payishi, ta'lim sohasi jadal kengayishi va rivojlangan mamlakatlarda texnologiyalar ta'sirida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonining yuqori sur'atda rivojlanishi bilan bog'liq. 2030 yilga kelib oliy ta'limda tahsil oluvchilar soni dunyo bo'ylab salkam 380 millionga yetishi kutilmoqda"¹. Bungungi kunda oliy ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish, global raqobatbardoshlikni oshirish va zamonaviy kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish bo'yicha natijador tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etishga dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida ta'lim xizmatlari eksporti masalasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada, jumladan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda: mintaqaviy xususiyatlarga ko'ra oliy ta'lim xizmatlari eksportini maqsadli rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini jahon bozorlaridagi sifat o'zgarishlariga ko'ra takomillashtirish; jahon bozorlarida ta'lim raqobatbardoshligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish (takomillashtirish); hududlarning iqtisodiy rivojlanishida oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlarini kengaytirishning samarali shakl va vositalarini asoslash.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini jahon andozalariga muvofiq sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, jahon bozorlarida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ayniqsa ta'lim xizmatlari eksportini jadal rivojlantirish kabi yo'nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "2026 yilda respublika eksport hajmini 30 milliard AQSh dollariga, jumladan ta'lim xizmatlari eksportini 1,7 baravarga oshirish rejalashtirilgan"². Bu borada mintaqaviy xususiyatiga ko'ra ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, hududdagi ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹Contextualising the report. Sustainable development challenges and the role of education. <https://www.unesco.org/en/futures-education/vision>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "«O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2019-yil 17-iyundagi PQ-4358-son "2019-2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2024-yil 1-fevraldagi PQ-51-son "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish va rivojlantirishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'rganish masalalari ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirishning butun davrida ilmiy tadqiqotlar va munozaralar mavzusi bo'lib xizmat qiladi. Dissertatsiya tadqiqotlarining muammolari ko'plab ilmiy nashrlarda yoritilgan bo'lib, ular taniqli olimlarning dissertatsiya mavzusini tanlash va uni uslubiy jihatdan asoslashga oid muammolarni hal etishga bo'lgan turlicha yondashuvlarini hamda bu yondashuvlarning asoslanganlik darajasini ochib beradi.

Turli davrlarda ta'lim xizmatlarini rivojlantirish va eksportini ta'minlash masalasida J.Smit, R.Harden, T.Roberts, J.Ioannidis, A.Astin, M.Walpole, A.Chickering, Z.Gamson, J.Gonzales, M.De La Rosa, J.Hayek, T.Mazzarol, G.Soutar, P.Bodycott, L.Chen, C.Zimitat, R.Perkins, P.Albax, J.Nayt, J.Frenk, Z.Bhutta, J.Cohen, N.Crisp, T.Evans, H.Zurayk, D.Deardorff, H.de Wit, J.Heyl, T.Adams o'z fikrlarini bildirishgan³.

³ Smith, J. (2020). "The Future of Medical Education: Balancing Tradition and Innovation". *Journal of Medical Education*, 45(3), 123-135.; Harden, R. M. (2002). "Developments in Outcome-Based Education." *Medical Teacher*, 24(2), 117–120. doi:10.1080/01421590220120669; Roberts, T. (2016). "Medical Education: The Global Perspective." *Medical Teacher*, 38(10), 1018–1024. doi:10.1080/0142159X.2016.1218269; Ioannidis, J. P. A. (2018). "Medical Research: The Risk of Bias in Medical Education Studies." *Academic Medicine*, 93(7), 943–945. doi:10.1097/ACM.0000000000002130; Astin, A. W., & Walpole, M. (2003). "What matters in college: Four critical years revisited". Jossey-Bass Inc., 350 Sansome Street, San Francisco, CA 94104; Chickering, A. W., & Gamson, Z. F. (1987). Seven principles for good practice in undergraduate education. *AAHE Bulletin*, 39(7), 3–7.; Gonzalez, J. L., & De La Rosa, M. (2018). International students' satisfaction with university life: A factor analysis approach. *Journal of International Students*, 8(2), 1–19.; Hayek, J. C. (1987). The use of ordinary least squares regression in higher education research. *Research in Higher Education*, 26(3), 239–252.; Mazzarol, T., & Soutar, G. N. (2002). "Push-pull" factors influencing international student destination choice. *International Journal of Educational Management*, 16(2), 82-90. <https://doi.org/10.1108/09513540210418403>; Bodycott, P. (2009). Choosing a higher education study abroad destination: The importance of cultural and social capital. *Journal of Studies in International Education*, 13(2), 132-152. <https://doi.org/10.1177/1028315308319967>; Chen, L. H., & Zimitat, C. (2006). The processes of decision making by international students studying in the United States: A case study. *Journal of Educational Studies*, 31(2), 191-205. <https://doi.org/10.1080/00220671.2006.1071590>; Perkins, R.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan T.Rogova, I.Risin, A.Kosevich, R.Amirov, A.Manukyanlarning ishlari e'tiborga molik⁴.

Mamlakatimizda ta'lim xizmatlari sohasini rivojlantirish masalalari A.Bekmurodov, U.G'afurov, B.Navro'z-Zoda, U.Burxonov, K.Ruziyev, A.Vaxobov, E.Imomov, A.Soliyev, M.Tursunxodjayeva, N.Xusanova, Sh.Kuldashev, G.Axunova, A.Ochilov kabi olimlarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan bo'lsa, ta'lim xizmatlarining mintaqaviy xususiyatlari borasida A.Nizamov, D.Yavmutov, B.Azimov, N.Arabov, A.Ishmuhamedov, M.Rahimova, I.Yakubov, A.Islomov, M.Sunnatov kabi olimlar ulkan hissa qo'shganlar⁵.

Yuqorida ko'rsatilgan ilmiy izlanishlarda ta'lim xizmatlari tushunchasining mohiyati, uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri, mintaqada ta'lim eksportini dasturli maqsadli rivojlantirishning ahamiyati to'liq ochib berilgan. Ammo mamlakatimizda oliy ta'lim eksportini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari hamda mintaqaviy xususiyatlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu muammolar nafaqat mintaqada balkim mamlakat darajasida ahamiyatini hamda to'liq o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

(2016). The marketing of educational institutions in the international student market. *International Journal of Educational Management*, 30(4), 705-721. <https://doi.org/10.1108/IJEM-06-2015-0060>; Altbach, P. G., & Knight, J. (2007). The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities. *Journal of Studies in International Education*, 11(3-4), 290-305. <https://doi.org/10.1177/1028315307303542>; Frenk, J., Chen, L., Bhutta, Z. A., Cohen, J., Crisp, N., Evans, T., ... & Zurayk, H. (2010). Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems in an interdependent world. *The Lancet*, 376(9756), 1923-1958. [https://doi.org/10.1016/S0140-6736\(10\)61854-5](https://doi.org/10.1016/S0140-6736(10)61854-5); Deardorff, D. K., de Wit, H., Heyl, J. D., & Adams, T. (Eds.). (2012). *The SAGE Handbook of International Higher Education*. SAGE Publications.

⁴ Рогова, Т. М. Экспорт образовательных услуг российских вузов: барьеры и перспективы : дис. ... канд. экон. наук : 08.00.14 / Т. М. Рогова. – Ростов н/Д, 2013. – С. 23.; Косевич, А. В. Экспорт образовательных услуг сферы высшего образования: мировой опыт и российская практика : дис. ... канд. экон. наук : 08.00.14 / А. В. Косевич. – М., 2006. – С. 47.; Рисин И.Е. (2009). Экономический анализ экспорта образовательных услуг. Экономический анализ: теория и практика, (16), 12-18.; Амиров Расул Аликадиевич (2018). Экспорт образовательных услуг как важнейший фактор повышения конкурентоспособности и экономического развития страны. Управленческое консультирование, (8 (116)), 71-81. doi: 10.22394/1726-1139-2018-8-71-81; Манукян А.Р. Экспорт образования как фактор экономического роста страны / А.Р.Манукян // Социально-гуманитарные знания. – 2023. – №2. – С. 106-110. (0,5 п.л.) (Перечень ВАК)

⁵ Бекмуродов А.Ш., Гафуров У.В. Ўзбекистон – иқтисодиётни модернизациялаш ҳамда ислохотларни чуқурлаштиришнинг янги ва юксак босқичи йўлида. Т.: Иқтисодиёт, 2008. – 126 б.; Наврўз-зода Б.Н. ва воҳкалар Ўзбекистон олий таълим тизимида сифат таъминоти: UQASE МОДЕЛИ. – Т: «Xarizma design», 2008. – 245 б.; Kobil & Burkhanov, Umar. Ruziev, Kobil & Burkhanov, Umar. (2018). Uzbekistan: Higher Education Reforms and the Changing Landscape Since Independence. 10.1007/978-3-319-52980-6_17.; Вахабов А., Имамов Э., Солеев А., Турсунходжаева М., Хусанова Н. Республика Узбекистан национальный отчет по политике в секторе образования. Высшее образование в Центральной Азии. Задачи модернизации – Вашингтон. Всемирный банк. 2007- С. 94-95, 131, 161-162, 194.; Kuldashev, Sherzod. (2024). Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. 1. 10.55439/GED/vol1_iss1/a805.; Ахунова Г.Н. Исследование рынка образовательных услуг в Узбекистане. – Т., 2003 30. Ашуров, М. (2021); A Ochilov (2012). Education and economic growth in Uzbekistan, Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB 12 (3), 21-33.; A. Nizamov, Sh. Gafurova (2024) Методические подходы к моделированию системы управления качеством образования в вузах. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlari. 155-160b.; O.Хамидов, А.Маманазаров, Д.Явмутов, О.Падалка, С.Гушко, В.Кулишов. Цивилизационные изменения в образовании: проблемы их реализации. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. №4, (2021) 6-17 стр.; Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, B.F Azimov, GM Qudratova (2024) Science and Education 4 (7), 476-481; N.Arabov, A.Berdiyev. Methods for comprehensive assessment of the effectiveness of the labor market infrastructure. Asian journal of the research in business economics and management 11 (10) 70-75p (2021); Ishmuhamedov A.E., Raximova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – Т.: Iqtisodiyot, 2010. – 234 б.; Yakubov I.O., Isломov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. –Т.:2019.-228b.;

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universitetining "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim xizmatlari eksporti sohasida raqobat strategiyasining mintaqaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- ta'lim xizmatlarini tashkil etish va ularni eksport qilishning nazariy-konseptual jihatlarini yoritish;

- mintaqaviy ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimlashtirish;

- mintaqaviy ta'lim xizmatlari eksporti sohasida raqobat strategiyasining nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish;

- O'zbekistonda tibbiy ta'lim eksportining rivojlanish tendensiyalariga baho berish;

- Zarafshon iqtisodiy mintaqasida oliy ta'lim xizmatlari talab hajmiga ta'sir etuvchi omillarini tahlil qilish;

- Zarafshon iqtisodiy mintaqasidagi oliy ta'lim xizmatlaridan qoniqish indeksiga ta'sir etuvchi omillarini o'rganish;

- oliy ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish va rivojlantirishning mintaqaviy strategiyasini takomillashtirish;

- oliy ta'lim eksporti hajmini ta'lim sifati ko'rsatkichlari orqali belgilash, boshqarish va prognozlashtirish;

- mintaqada oliy ta'lim xizmatlari sifatini va samaradorligini oshirishda raqobat strategiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Zarafshon iqtisodiy mintaqasidagi ta'lim xizmatlari eksportini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, O'zbekistonda oliy ta'lim xizmatlari eksporti sohasida raqobat strategiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq munosabatlarning mintaqaviy xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli va qiyosiy tahlil, abstraktsiya, monografik kuzatuv, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, so'rovnoma, intervyu, korrelyatsion va regression tahlil, ekspert baholash, prognozlash va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xorijiy talabalarining oliy ta'limdan qoniqish darajasini baholash uslubi ta'sirchanlik darajasiga ko'ra o'qish tajribasini oshirishda qo'shimcha yordam xizmatlarini taklif qilish ($x_1 = 0.115$), yotoqxona sharoitlari ahamiyati ($x_2 = 0.302$), amaliyot o'tash va amaliy mashg'ulotlarda qatnashish imkoniyati ($x_3 = 0.176$) kabi ko'rsatkichlarning optimal me'yorlarini asoslanishiga ko'ra takomillashtirilgan;

xorijiy talabalar soniga ta'sir etuvchi "bir o'qituvchiga to'g'ri keluvchi talabalar soni", "ilmiy salohiyat" ko'rsatkichi hamda "xorijiy talabaning to'lov shartnoma qiymati" omillariga ko'ra 2029 yilgacha bo'lgan davrda qadar Zarafshon iqtisodiy mintaqasida xorijiy talabalar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

mintaqadagi oliy ta'lim muassasasi missiyasi va qadriyatlariga ko'ra ta'lim xizmatlari bozorlaridagi o'rnining muhim elementi sifatida "brend" asosida xalqaro strategiyasini shakllantirish hamda "Demografik salohiyat indeksi"ga ko'ra salohiyatli bozorlarni ta'lim dasturlari bo'yicha xorijiy talabalar tomonidan talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar birgalikda qo'llanilishi asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir qiluvchi omillarni tizimli yondashuvi omillarning jarayonga ta'sir ko'rsatishiga ko'ra global, mamlakat, mintaqa va oliy ta'lim muassasasi darajalariga murakkab ko'p qatlamli model asosida tavsiflanib, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sir kuchini aniqlashga ko'ra takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim sohasini eksport qilish faoliyati nafaqat OTM, balkim mintaqa iqtisodiyotida ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etish bilan birga, uni takomillashtirish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqilishi kerakligi ilmiy asoslantirilgan;

mintaqa oliy ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir etuvchi 29 ga yaqin omillarning xususiyatlari, tasnifi va guruhlar mualliflik yondashuviga ko'ra tizimlashtirilgan;

oliy ta'lim xizmatlari eksportining tashkiliy mexanizmlari hamda mintaqaviy xususiyatlari nazariy jihatdan mualliflik yondashuviga ko'ra ta'riflangan va uning o'ziga xos xususiyatlari asoslantirib berilgan;

oliy ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish va rivojlantirishning mintaqaviy strategiyasi, OTM, mintaqa hamda respublika darajasidagi chora-tadbirlar tavsiya etilgan;

jahonning 206 davlati bo'yicha talabalarning demografik salohiyat indeksi baholanib, Osiyo, Afrika, Amerika va Yevropa mintaqalari bo'yicha eng yuqori salohiyatga ega 10 ta mamlakat aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarni maqsadga muvofiqligi, rasmiy statistik manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Buxoro davlat tibbiyot instituti hamda Samarqand davlat tibbiyot universitetining ma'lumotlaridan olingani, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilib, mas'ul tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar mintaqaviy oliy ta'lim eksport salohiyatini oshirish, xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yichaga oid normativ-huquqiy hujjatlar asoslarini takomillashtirish va mavzu yo'nalishida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlarining nazariy bazasini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining mintaqada oliy ta'lim eksportini oshirishda xorijiy talabalar soniga hamda ularning oliy ta'limdan qoniqish darajasiga ta'sir etuvchi omillarni shakllantirish va yuqori samaradorlikka erishish hamda ularni baholash yo'llarini takomillashtirish chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqaviy xususiyatlarga ko'ra oliy ta'lim xizmatlari eksporti sohasida raqobat strategiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

xorijiy talabalarning oliy ta'limdan qoniqish darajasini baholash uslubi ta'sirchanlik darajasiga ko'ra o'qish tajribasini oshirishda qo'shimcha yordam xizmatlarini taklif qilish ($x_1 = 0.115$), yotoqxona sharoitlari ahamiyati ($x_2 = 0.302$), amaliyot o'tash va amaliy mashg'ulotlarda qatnashish imkoniyati ($x_3 = 0.176$) kabi ko'rsatkichlarning optimal me'yorlarini asoslanishiga ko'ra takomillashtirish taklif Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni 6-bandining "Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar", "Yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar" nomli bandlarini asoslashda foydalanilgan (Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 19-sentyabrdagi 03-77-1-00978-sonli ma'lumotnomasi). Taklif mintaqalardagi oliy ta'lim muassasalarining jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash sohasida xorijiy fuqarolarni mamlakatimizda ta'lim olishga keng jalb qilish, xususan ta'lim dasturlari, talabalar turar joylari va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

xorijiy talabalar soniga ta'sir etuvchi "bir o'qituvchiga to'g'ri keluvchi talabalar soni", "ilmiy salohiyat" ko'rsatkichi hamda "xorijiy talabaning to'lov shartnoma qiymati" omillariga ko'ra 2029 yilgacha bo'lgan davrda qadar Zarafshon iqtisodiy mintaqasida xorijiy talabalar prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan investitsiyalarni jalb qilish yuzasidan 2022-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonda tasdiqlangan II-Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash bo'limi, "O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish" 11-bandini ijro etish maqsadida "Zarafshon mintaqasida xorijiy talabalar tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasalarida eksport ko'rsatkichlarini 2029-yilga qadar amalga oshirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 19-sentyabrdagi 03-77-1-00978-sonli ma'lumotnomasi). mazkur taklif mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalari va dasturlarni ishlab chiqishda uslubiy asoslardan biri sifatida muayyan darajada xizmat qilgan;

mintaqadagi oliy ta'lim muassasasi missiyasi va qadriyatlariga ko'ra ta'lim xizmatlari bozorlaridagi o'rning muhim elementi sifatida "brend" asosida xalqaro strategiyasini shakllantirish hamda "Demografik salohiyat indeksi"ga ko'ra salohiyatli bozorlarni ta'lim dasturlari bo'yicha xorijiy talabalar tomonidan talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar birgalikda qo'llanilishi asosida takomillashtirish taklifi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonning 95-maqsadi "An'anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish"ni asoslashda foydalanilgan (Inves-

titsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025 yil 19 sentyabrdagi 03-77-1-00978-sonli ma'lumotnomasi). Taklif dunyo mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirishga, strategik va har tomonlama aloqalarni kengaytirish, ta'lim xizmatlari eksportini oshirish, salohiyatli bozorlarni tanlashda ortiqcha sarf xarajatlarni kamaytirish kabilarga muayyan darajada xizmat qilgan;

oliy ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir qiluvchi omillarni tizimli yondashuvi omillarning jarayonga ta'sir ko'rsatishiga ko'ra global, mamlakat, mintaq va oliy ta'lim muassasasi darajalariga murakkab ko'p qatlamli model asosida tavsiflanib, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sir kuchini aniqlashga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda foydalanilgan va <https://studyin-uzbekistan.uz/> veb sahifasining joriy etilishida foydalanilgan (Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 19-sentyabrdagi 03-77-1-00978-sonli ma'lumotnomasi). Taklif oliy ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir darajasini baholash aniqligini oshirishga ko'ra chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan mahalliy ilmiy jurnallarda 3 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta maqola, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 7 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 150 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Mintaqada oliy ta'lim xizmatlari eksporti sohasidagi raqobat strategiyasining nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida ta'lim xizmatlari tushunchasi, uning nazariy va uslubiy asoslari, oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uning oliy ta'limda qo'llanilishi, oliy ta'lim xizmatlari eksporti sohasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar, jumladan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlar tizimlashtirilgan va o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, oliy ta'lim xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, aholining ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirishni maqsad qilib qo'yimoqda.

Bu jarayon islohotlar uchun yangicha yondashuvlar va mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Oliy ta'lim eksportining tarixi globalizatsiya va xalqaro ta'limning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayon bir qancha davlatlar uchun iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni ko'zlagan holda amalga oshirilgan⁶.

Joriy yilning 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokama qilinganda unda boshqa sohalar qatorida ta'lim sohasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va oliy ta'lim eksportini oshirish zarurati ham muhokama qilindi. Prezident tomonidan o'tgan 8 yil mobaynida respublika hududida 125 ta yangi oliygoh tashkil etilganligi shundan 23 tasi xorijiy universitet filiallari bo'lishga qaramay, ta'lim eksporti past darajada ekanligi ta'kidlangan. Bu yirik islohotlarning natijasi bo'lsada, o'tgan yili oliy ta'lim eksporti 26 million dollarni tashkil etgani mavjud imkoniyatlarga mutlaqo mos emasligi ta'kidlangan⁷.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi esa, chet ellik talabalarni jalb qilish nafaqat universitetlar uchun muqobil daromad manbai bo'lib, balki ularni qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishga ma'lum darajada hissa qo'shadi. Misol tariqasida Amerika Qo'shma Shtatlari tahsil olayotgan 1 milliondan ortiq chet ellik talabalar dunyoning 200 dan ortiq davlatlardan tashrif buyurib mamlakat uchun yillik 32,8 mlrd. AQSh dollariga teng mablag'larning kelib tushishini ta'minlaydi

Xalqaro talabalar Buyuk Britaniyada yillik 7 milliard yevroning mamlakat byudjetiga kelib tushishida sababchi bo'lsa Rossiya Federatsiyasida mazkur ko'rsatkich qariyb 1,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi. Dunyoda eng ko'p xorijda ta'lim olishni afzal ko'rgan Xitoy fuqarolari chet elda birgina o'qish xarajatlari uchun yillik 39,7 milliard dollardan ortiq mablag'ni sarflashadi⁸.

Mintaqada ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimlashtirish orqali nafaqat ta'lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish, balki oliy ta'lim muassasalari sifatida mintaqada o'z o'rnini mustahkamlash imkoniyatlari ham yaratiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib muallif tomonidan ta'lim xizmatlari eksportiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar 1-jadvalda ko'rsatilgani kabi turkumlangan.

⁶ Novikova, E. S. (2021). EXPORT OF HIGHER EDUCATION AS THE TOOL FOR COMPETITIVENESS IMPROVEMENT OF ECONOMIES IN THE WORLD. *International Trade and Trade Policy*, 7(2), 133–148. <https://doi.org/10.21686/2410-7395-2021-2-133-148>

⁷ <https://talimxabarlari.uz/21262/>

⁸ Амиров Расул Аликадиевич (2018). Экспорт образовательных услуг как важнейший фактор повышения конкурентоспособности и экономического развития страны. *Управленческое консультирование*, (8 (116)), 71-81. doi: 10.22394/1726-1139-2018-8-71-81

Xalqaro ta'lim iqtisodiyotning eksport tarmog'i sifatida tobora rivojlanib bormoqda va boshqa eksport xizmatlari va tarmoqlari orasida rentabellik bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Hozirgi geosiyosiy vaziyatda mamlakat ta'limining jahon bozorlariga muvaffaqiyatli targ'ib qilish uchun asosiy raqobat afzalliklarini aniqlashga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Raqobat strategiyasining nazariy asoslari oliy ta'lim eksportida muhim ahamiyat kasb etadi. Turli nazariy yondashuvlar yordamida ta'lim muassasalari xalqaro bozorda o'z raqobatbardoshligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatiga egalar.

Mazkur bob yakunida Maykl Porterning raqobat afzalliklari nazariyasi, tibbiy ta'lim eksportida SWOT tahlili hamda Global Marketing nazariyasi ko'rib chiqilgan. Dissertatsiyaning «**O'zbekistonda va Zarafshon iqtisodiy mintaqasida oliy ta'lim xizmatlari eksportining holatiga baho berish**» deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda va Zarafshon iqtisodiy mintaqasida oliy ta'lim xizmatlari eksportining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib oliy ta'lim xizmatlari talab hajmiga ta'sir etuvchi omillar hamda talabaning oliy ta'limdan qoniqish darajasiga ta'sir etuvchi omillar yoritib berilgan.

O'zbekiston nafaqat o'z fuqarolariga, balki xorijiy talabalarga ham yuqori sifatli oliy ta'limni taklif etayotganligi turli nashr va hisobotlarda o'z aksini topmoqda.

1-jadval

Respublikada ta'lim olayotgan xorijiy talabalar soni to'g'risida ma'lumot¹⁰

№	Hudud nomi	Jami talabalar soni	Xorijiy talabalar soni (Barcha yo'nalishlar)	Respublika dagi ulushi	Xorijiy talabalar soni (Tibbiyot yo'nalishi)	Respublika dagi ulushi
		1 561 108	14 800	100%	10 586	100%
I.	Farg'ona iqtisodiy mintaqasi			19.6%		21.5%
1	Andijon vil.	100 271	1 335	9,0%	1022	
2	Farg'ona vil.	136 244	1 430	9,6%	1123	
3	Namangan vil.	95 091	87	0,6%		
II.	Zarafshon iqtisodiy mintaqasi			29.4%		38.6%
4	Buxoro vil.	106 152	985	6,7%	880	
5	Samarqand vil.	160 050	3 329	22,5%	3281	
6	Navoiy vil.	65 948	27	0,2%		
III.	Mirzacho'l iqtisodiy mintaqasi			0.7%	-	-
7	Jizzax vil.	73 223	37	0,3%		
8	Sirdaryo vil.	47 254	61	0,4%		
IV.	Toshkent iqtisodiy mintaqasi			40.4%		28.5%
9	Toshkent shaxar	166 537	5 534	37,4%	3040	
10	Toshkent vil.	150 988	451	3,0%		
V.	Janubiy iqtisodiy mintaqasi			1.9%		1.3%
11	Qashqadaryo vil.	161 036	54	0,4%		
12	Surxondaryo vil.	110 331	229	1,5%	148	
VI.	Quyi Amudaryo iqtisodiy mintaqasi			8.4%		10.1%
13	Xorazm vil.	93 045	1 158	7,8%	1091	
14	Qoraqalpog'iston Res.	94 938	83	0,6%	1	

¹⁰ "Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi" Hemis elektron platformasidagi rasmiy ma'lumotlarga asosan tuzildi. <https://stat.edu.uz/students/08/12/2024>

Malakatimiz so'nggi yillarda xorijiy talabalar uchun jozibador ta'lim markaziga aylanishga intilmoqda (1-jadval). Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan tashqari respublikada ta'lim olayotgan xorijiy talabalarni "Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi" ma'lumotlari asosida mintaqalar kesimida tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni keltirilgan. Mazkur jadvalda respublika miqyosida tahsil olayotgan jami talabalar hamda tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan jami talabalarining hududlar hamda iqtisodiy mintaqalar kesimida tahlili amalga oshirilgan. Yuqoridagi jadvaldan mamlakatimizga tibbiyot yo'nalishida tahsil olish uchun kelayotgan talabalar boshqa yo'nalishlarga qaraganda bir necha baravar ko'p ekanligidan dalolat beradi.

Buxoro davlat tibbiyot instituti hamda Samarqand davlat tibbiyot universitetiga tibbiy ta'lim olish uchun tashrif buyurayotgan xorijlik talabalar soniga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq o'rganish maqsadida institutining 2018-2023 yillar davomidagi OTM arxiv bo'limidan olingan, birlamchi (first source of data) ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari, xorijiy talabalarining ko'payishiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan o'zgaruvchilarni aniqlash, shuningdek, institutning ta'lim va ilmiy salohiyatini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ma'lumotlar panel shaklida bo'lib 29 turdagi omillarning 6 yillik 12 ta semestr kuzatuvlarining tahlili olib borildi. Ma'lumotlar tahlili jarayonida Stata 15.0 dasturidan foydalanildi va o'zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya, oddiy to'g'ri chiziqli regressiya modeli, multikollinearlik darajasi va baholash natijalari ko'rib chiqildi. Tahlilda Xorijiy talabalar soniga ta'sir etuvchi 29 ta omilning o'rtachadan chetlashish tafovutlarning normal taqsimotga ega bo'lganlarini aniqlashtirib ahamiyatsiz omillardan voz kechildi va natijada bizga quyidagi omillar keyingi tahlilarni amalga oshirish maqsadida tanlandi:

Y- Xorijiy talabalar soni;

x₁- Bir o'qituvchiga to'g'ri keluvchi talabala soni;

x₂- Ilmiy salohiyat;

x₃- Xorijiy talaba to'lov shartnoma qiymati.

2-jadval

Zarafshon iqtisodiy mintaqasida ta'lim oluvchi xorijiy talabalar soniga ta'sir etuvchi omillarning oddiy to'g'ri chiziqli regressiya modeli (OLS)

InXorijiy_talabalar	Koef.	Standart og'ish	t-qiymat	p-qiymat	95% tasdiq	oraliq	Ahamiyatlilik
lnBir o'qituvchiga to'g'ri keluvchi talabalar soni;	-16.959	1.463	-11.59	0	-20.334	-13.584	***
lnIlmiy salohiyat	4.835	.898	5.38	.001	2.764	6.906	***
lnXorijiy talaba to'lov shartnoma qiymati	-1.911	.308	-6.21	0	-2.621	-1.201	***
Constant	73.782	3.916	18.84	0	64.752	82.812	***
Mean dependent var		7.022		SD dependent var		1.241	
R-squared		0.999		Number of obs		12	
F-test		1780.937		Prob > F		0.000	
Akaike crit. (AIC)		-31.865		Bayesian crit. (BIC)		-29.925	
*** $p<.01$, ** $p<.05$, * $p<.1$							

2-jadvalda o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlarni va ular bog'liq o'zgaruvchiga ta'siri quyidagicha izohlanadi:


– Bir o'qituvchiga to'g'ri keluvchi talabalar soni bir birlikka ortishi xorijiy_talabalar sonining -16.959 birlikka kamaytiradi;

– Ilmiy salohiyatning 1 birlikka ortishi xorijiy_talabalar sonining 4.835 birlikka oshiradi;

– xorijiy talaba to'lov shartnoma qiymatining 1 birlikka ortishi xorijiy_talabalar sonini -1.911 birlikka kamaytiradi.

Tadqiqotda biz “oddiy eng kichik kvadratlar” modelidan foydalandik. Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan OLS modelidan quyidagi ko'p faktorli regressiya modeli ishlab chiqilgan:

$$Y = 73.782 - 16.959x_1 + 4.835x_2 - 1.911x_3 + \varepsilon_i \quad (1)$$



2-rasm. Zarafshon iqtisodiy mintaqasida xorijiy talabalar soniga kuchli ta'sir qiluvchi omillarning normal taqsimot gistogrammasi

2-rasmda rasmda ikki o'zgaruvchi orasidagi munosabatni grafik ko'rinishida tasvirlash uchun ishlatilgan. Bu grafik yordamida ikki o'zgaruvchi orasidagi bog'lanishni aniqlashga ishlatish mumkin.

Twoway Skatter chizmasiga ko'ra xorijiy talabalar soni to'g'ri chiziqli funksiyaga asoslanganligi tufayli biz OLS modelni qo'llay olamiz.

Biz tomonimizdan olib borilgan ikkinchi tahlilda ta'lim sifati va uning xorijiy talabalar qoniqishi bilan bog'liq jihatlari o'rganildi hamda ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va mutanossib ravishda uni baholash maqsadida xorijiy talabalarining oliy tibbiy ta'lim muassasasi ta'limidan qoniqish darajasi indeksi ishlab chiqildi. Mazkur indeks tarkibiga OTMda tibbiy ta'lim sifati, chet ellik talabalarga taqdim etilayotgan qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan qoniqish darajasi, xorijlik talabalar uchun mazkur mintaqadagi yashash sharoitlari, tahsil olinayotgan OTMni boshqa chet ellik talabalarga tavsiya qilish ehtimoli hamda OTMda amaliyot va amaliy mashg'ulotlar sifati kiritilib murakkab ilmiy va ijtimoiy

hodisalarni umumlashtirishga erishildi. OTMda tahsil oluvchi xorijiy talabalarning oliy tibbiy ta'limdan qoniqish indeksiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda quyidagi bir qator gipotezalar qo'yildi:

H_0 - Oliy tibbiy ta'limdan qoniqish indeksiga, Buxoro davlat tibbiyot instituti yoki Samarqand davlat tibbiyot universitetini tanlashdagi asosiy sabab ($x_1; z_1$), tibbiy ta'lim holatining mavjud sifatini oshirish yoki yaxshilashga oid qabul qilinadigan choralar ($x_2; z_2$), o'qish tajribasini oshirish uchun qo'shimcha yordam xizmatlarini taklif qilish omili ($x_3; z_3$), OTMda xorijlik talabalar uchun yotoqxona sharoitlari va uning mavjudligi ($x_4; z_4$), o'qish uchun mazkur mintaqani tanlashga ko'proq ta'sir qilgan omil ($x_5; z_5$), mazkur OTMda chet ellik talaba sifatida duch kelgan qiyinchiliklar ($x_6; z_6$), Buxoro davlat tibbiyot instituti yoki Samarqand davlat tibbiyot universitetini tanlash qarorida amaliyot o'tash va amaliy mashg'ulotlarda qatnashish ($x_7; z_7$), OTMni tugatgandan keyin faoliyat olib boriladigan joy ($x_8; z_8$), o'rtasida o'zaro munosabat mavjud emas.

Anketa savollari ta'lim sifati (talabalar fikri, o'quv dasturlari, infratuzilma, xizmat ko'rsatish) hamda talabalar qoniqishi (o'quv jarayoni, ijtimoiy muhit, hayot sharoiti) o'z ichiga olgan. Tadqiqotda Buxoro davlat tibbiyot instituti hamda Samarqand davlat tibbiyot universitetida tahsil olaytogan 4569 nafar xorijiy talabalardan 408 nafari tasodifiy tanlov asosida qatnashdi.

Qatnashgan talabalarning soni tadqiqot uchun statistik jihatdan ahamiyatlilikini aniqlash uchun, avval tanlanma hajmi (so'rovnomada qatnashgan talabalar soni) asosiy to'plamga (umumiy talabalar soni) nisbatan yetarli darajada katta ekanligini tekshirildi¹¹.

3-jadval

OTMda tahsil oluvchi xorijiy talabaning oliy tibbiy ta'limdan qoniqish indeksiga ta'sir etuvchi omillar oddiy to'g'ri chiziqli regressiya modeli (OLS)

Qoniqish indeksi (y_1)	Koef.	Standart chet.	t- qiymat	p- qiymat	[95% tasdiq	Oraliq	Ahamiyatlilik
x_1	.197	.036	5.48	0.08	.127	.268	**
x_2	.03	.047	0.64	.52	-.062	.123	
x_3	.115	.031	3.73	0	.054	.176	***
x_4	.302	.039	7.66	0	.224	.379	***
x_5	.001	.02	0.06	.956	-.039	.041	
x_6	.091	.024	3.79	0.09	.044	.137	**
x_7	.176	.032	5.52	0	.113	.239	***
x_8	.013	.027	0.50	.618	-.039	.066	
Constant	.547	.207	2.65	.009	.141	.954	***
Mean dependent var			2.744	SD dependent var		0.806	
R-squared			0.440	Number of obs		313	
F-test			29.855	Prob > F		0.000	
Akaike crit. (AIC)			588.775	Bayesian crit. (BIC)		622.491	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Tadqiqot natijalari tahlili OTMda tahsil oluvchi xorijiy talabaning oliy tibbiy ta'limdan qoniqish indeksi va Buxoro davlat tibbiyot institutini tanlashdagi asosiy sabab o'rtasida 78.8 %, OTMda xorijlik talabalar uchun yotoqxona sharoitlari va

¹¹ Freedman, D., Pisani, R., & Purves, R. (2007). Statistics. 4th Edition. W.W. Norton & Company pp. 280–284.

uning mavjudligi 79.1%, Buxoro davlat tibbiyot institutini hamda Samarqand davlat tibbiyot universitetini tanlash qarorida amaliyot o'tash va amaliy mashg'ulotlarda qatnashish 88.3% kuchli bog'liqlik qayd etildi. Shuningdek, Pirson korrelyatsiyasi testiga muvofiq model statistik ahamiyatli ekanligi isbotlandi.



Ekonometrik tahlil parametrlarini aniqlash va gipotezalar tekshiruvi jarayonida uning umumiy adekvatliligini aniqladi. Fisher testi (F-test) bu butun model uchun qo'yilib, jami mustaqil o'zgaruvchilar birgalikda bog'liq o'zgaruvchi (y_1)ga ta'sir qilmaydi deb H_0 gipoteza qo'yilgan. Lekin bizning tadqiqotimizga ko'ra, F -testning p qiymati 0.05 dan kichik bo'lgan x_3, x_4, x_7 kabi o'zgaruvchilar statistik jihatdan ahamiyatligi aniqlandi.

P qiymat har bir mustaqil o'zgaruvchining statistik ahamiyatini ko'rsatadi. p -qiymatlari yonidagi yulduzchalar ahamiyatlilik darajasini bildiradi; * $p < 0,1$ uchun, ** $p < 0,05$ uchun va *** $p < 0,01$ uchun. Tadqiqotimizda tanlangan mustaqil o'zgaruvchilardan x_1, x_2, x_5, x_6, x_8 lar kuzatuvlar bo'yicha statistik ahamiyatsiz bo'lib modelga kiritilmadi. OTMda tahsil oluvchi xorijiy talabalarning oliy tibbiy ta'limdan qoniqish indeksiga ta'sir etuvchi omillar ta'siri aniqlanib quyidagi tenglamaga erishildi (6).

$$\hat{y}_1 = 0.547 + 0.115 \times x_3 + 0.302 \times x_4 + 0.176 \times x_7 \quad (3)$$



3-rasm

yhat testi natijasining gistogramma ko'rinishi



4-rasm

ehat testi natijasining gistogramma ko'rinishi



3 hamda 4 rasmlardagi “yhat” hamda “ehat” o'zgaruvchilarining testlari orqali normal taqsimotdan mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Tadqiqot natijalari

ko'rsatadiki, Buxoro davlat tibbiyot instituti hamda Samarqand davlat tibbiyot universitetida xorijiy talabalar uchun o'qish tajribasini oshirish uchun qo'shimcha yordam xizmatlarini taklif qilinishi, xorijlik talabalar uchun yotoqxona sharoitlarini qayta ko'rib chiqish va uning yetarliligiga ahamiyat berish, Buxoro davlat tibbiyot institutini hamda Samarqand davlat tibbiyot universitetini tanlash qarorida amaliyot o'tash va amaliy mashg'ulotlarda qatnashish imkoniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ya'ni mazkur omillarning bir birlikka o'zgarishi xorijiy talabalarning oliy tibbiy ta'limdan qoniqish darajasi mos ravishda +0.115, +0.302 va +0.176 ko'rsatkichga oshishiga sabab bo'ladi. Umuman olganda, tadqiqot xorijiy talabalarning ta'limdan qoniqishini oshirish uchun zarur bo'lgan omillarni belgilab berdi va oliy ta'lim muassasasi uchun qimmatli tahlil sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Zarafshon iqtisodiy mintaqasida oliy ta'lim xizmatlari eksporti sohasidagi raqobat strategiyasini takomillashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida oliy ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish va rivojlantirishning mintaqaviy strategiyasi, oliy ta'lim eksporti hajmini ta'lim sifati ko'rsatkichlari orqali belgilash, boshqarish va prognozlashtirish hamda mintaqada oliy ta'lim xizmatlari sifatini va samaradorligini oshirishda raqobat strategiyasini ishlab chiqish hamda O'zbekistonning ta'lim sohasidagi salohiyati, xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan islohotlar haqida tavsiyalar berilgan. Quyida biz oliy tibbiy ta'lim xizmatlari bozorining hozirgi holati, aniqlangan muammolar kamchiliklar va erishilmagan imkoniyatlar to'g'risida o'z fikrlarimizni keltiramiz:

Buxoro davlat tibbiyot instituti hamda Samarqand davlat tibbiyot universitetining moliyaviy holatidan kelib chiqib xorijiy talabalar uchun grantlar ajratish imkoniyatini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqdim etish mumkin:

- to'liq grantlar: Talabalarning barcha o'qish xarajatlarini qoplash, jumladan, o'qish, turar-joy, tibbiy sug'urta va yashash xarajatlarini o'z ichiga olgan grantlar.

- qisman grantlar: Talabalarga o'qish xarajatlarini qoplash uchun qisman yordam berish.

- tibbiy ta'lim grantlari dasturi: Tibbiyot fakultetlarda ta'lim olayotgan xorijiy talabalar uchun alohida grant dasturlari.

Mahalliy hokimiyat tomonidan amalga oshiriladigan ishlar:

- mintaqada oliy tibbiy ta'lim eksportini jadallashtirish, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda salohiyatli bozorlarni aniqlash va ularga kirish maqsadida Buxoro viloyatiga biriktirilgan chet-el vakolatxonalari bilan ilmiy yo'nalishdagi hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- mintaqada mingdan ortiq xorijiy talaba tahsil olishini inobatga olib viloyat hokimligi madaniyat boshqarmasi tomonidan xorijiy talabalar uchun turli xildagi madaniy, ma'rifiy va sport musoboqalarini o'tkazish, xorijiy talabalarning mazkur mintaqaning bir bo'lagi, hozirgi jamiyatimizning a'zosi ekanligini ko'rsatish va shu orqali hudud turmush tarziga tezroq moslashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti joylashgan tutash hududlarni tibbiyot klasteriga aylantirish (Maxsus tibbiyot zonasi). Mazkur tibbiyot klasterida kadrlar tayyorlashdan boshlab, ularning malakasini oshirish,

bemorlarga turli-xil xizmatlarni ko'rsatish, tibbiy buyum va dori vositalarni ishlab chiqarishgacha bo'lgan tibbiyotga oid barcha yo'nalishlarda faoliyat yuritish uchun shart-sharoit yaratish va uning huquqiy maqomini belgilash;

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida amalga oshirilayotgan ilmiy ishlar, innovatsiyalar va patentlarni amaliyotda tadbiq etish maqsadida tibbiyot klasterida tarkibida (Maxsus tibbiyot zonasi) tibbiyot texnoparkini yaratish va uni moliyalashtirish bo'yicha amaliy yordam berish.

Hukumat tomonidan amalga oshiriladigan ishlar:


Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutiga, hozirgi kunda dunyo tibbiy ta'lim bozorida talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarni joriy etish hamda xorijiy reytinglarda o'z o'rnini mustahkamlashi uchun universitet maqomini berish.

